QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANI HOKIMINING

QARORI

2026-yil 1-avgust | 256-4-62-Q/26 | Kitob tuman hokimligi

Kitob tumani hududidagi umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Kitob tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga tegishli bo‘lgan umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanishiga qulaylik yaratish, avtomobillar qatnovini tartibga solish, texnika xavfsizligini ta’minlash, tirbandliklarning oldini olish hamda aholi va tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qaroriga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi birinchi qismiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Kitob tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (S.Shukurov)ga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qaroriga asosan quyidagi avtomobil yo‘llariga tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish yuklatilsin:

- **D- 160 “Kitob-Shahrisabz”** avtomobil yo‘lining 2–3 km oralig‘ida, Qishloq xo‘jaligi binosi ro‘parasiga, Tuman madaniyat saroyi binosi oldiga hamda Samarqand yo‘nalishidagi avtoturargoh oldiga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilari;
- **70V 002 “Rusqishloq-Makrid-Qopqonyog‘och”** avtomobil yo‘lining 0–13 km oralig‘ida og‘ir turdagi yuk mashinalari harakatini cheklash uchun 3.12 (9 tn) “O‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan” yo‘l belgilari;
- **70V 068 “Kitob-Beshterak-Dodiq”** avtomobil yo‘lining 12-kilometridan 70V 006 “Beshterak-Makrid” avtomobil yo‘liga burilish va “Navro’z” MFY yo’liga borish qismiga 3.12 (9 tn)“O‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan” yo‘l belgilari;

- **70V 033 “Varganza-Hazrati Bashir”** avtomobil yo‘lining 17-kilometriga avtobus va tirkamali transport vositalarining harakatini taqiqlovchi 3.1 “Kirish taqiqlangan” hamda 7.4.2 va 7.4.4 “Transport vositasi turi” qo‘shimcha axborot yo’l belgilari;
- **70V 034 “Kitob-Miraki”** avtomobil yo‘lining 2-kilometri 500-metrida (piket 2+500) hamda 11–14-25 km oraliqlarida og‘ir turdagi yuk mashinalari harakatini cheklash uchun 3.12 (9 tn) “O‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan” yo‘l belgilari, shuningdek, tegishli axborot-ko‘rsatkich va qo‘shimcha axborot yo’l belgilari.
- **70V 003 “Kitob-Alaquyliq ”** avtomobil yo‘lining 0-kilometrida og‘ir turdagi yuk mashinalari harakatini cheklash uchun 3.12 (9 tn) “O‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan” yo‘l belgilari, shuningdek, tegishli axborot-ko‘rsatkich va qo‘shimcha axborot yo’l belgilari.
- **70V 002 “Rusqishloq-Makrid-Qopqonyog‘och”** avtomobil yo‘lining 4–kilometridan Chechak qishlog’iga kirish (**70V 003 “Kitob-Alaquyliq**) avtomobil yo’li tomon og‘ir turdagi yuk mashinalari harakatini cheklash uchun 3.12 (9 tn) “O‘qqa tushadigan og‘irlik cheklangan” yo‘l belgilari;

3. Tuman IIB YHXB (M.Sultonov)ga yuqorida ko‘rsatilgan avtomobil yo‘llarida tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishi munosabati bilan yo‘llarda tirbandliklarning oldini olish, aholi va texnika xavfsizligini ta’minlash hamda avtomobillar qatnovini tartibga solish bo‘yicha nazoratni kuchaytirish topshirilsin.
4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Usmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tumani hokimi **G‘afurov R.A**

Kitob tumani hokimining
2026-yil 1-avgustdagi
256-4-62-Q/26-son qaroriga
1-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI
KITOB TUMANI ICHKI ISHLAR BO‘LIMI
731740. Kitob tumani, Kattayo‘l ko‘chasi, 2-uy.

56/ 4661 2026 yil «07» iyul

Kitob tuman hokimi
R.G`afurovga

B I L D I R I Sh X A T I

Kitob tuman IIB JXX YHXB Sizga shuni yozib ma’lum qiladiki, ushbu korxona balansidagi umumfoydalanuv avtomobil yullarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yul transport hodisalarini oldini olish, yulovchi va piyodalarga qulaylik yaratish maqsadida ayrim hududlarda taqiqlovchi yul belgilari **3.27 (to‘xtash va to‘xtab turish taqiqlanadi)** va umumfoydalanuv avtomobil yo‘llarida og‘ir turdagi yuk avtomobillarining harakatlanishi natijasidan yo‘l qoplamasini yaroqsiz holatda kelib qolishini oldini olish maqsadida **3.12 (o‘qqa tushadigan og‘irlik)** yo‘l belgilari o‘rnatilgan bo‘lib, lekin ushbu yo‘l belgilarining Tuman Hokimligi qarori yuq. Shundan kelib chiqib piyodalar va avtotransport vositalari bilan bog‘liq yo‘l transport hodisalarini oldini olish va tirbandlikni bartaraf etish, maqsadida quyidagi yo‘l belgilariga Tuman Hokimlik qarorini chiqarishga amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Jumladan: 1. **D- 160 “ Kitob – Shahrisabz”** avtomobil yulining 2-3 km oraliqlari **Qishloq xo‘jaligi binosi** ruparasiga, **Tuman madaniyat saroyi** binosi oldiga, **Samarqand shahriga jo‘nash** (eski avtoshoh bekat) avtoturargoxi oldiga **3.27 (tuxtash taqiqlanadi)** yul belgilariga

2. **70v 002 “ Rusqishloq – Makrid – Qopqonyog‘och “** avtomobil yulining 0-13 km oraliqlarida tezlikni taqiqlovchi **3.24 (50- tezlik taqiqlanadi)** va 0 -13 kmda og‘ir turdagi yuk mashinalariga **3.12 (o‘qqa tushadigan og‘irlik)** yul belgilariga

3. 70v 068 Kitob – Beshterak – Dodiq avtomobil yo‘lining 12 km dagi **70 v 006 Beshterak – Makrid** avtomobil yo‘liga burilish **(Qarshi CONCH SEMENT)** borish yo‘liga **3.12 (o‘qqa tushadigan og‘irlik)** yul belgilariga

4. **70 v 033 " Varganza – Hazrati Bashir "** avtomobil yulining **17 km** da **3.1** (kirish taqiqlanadi) **7.4.4 va 7.4.2** (qushimcha axborot ishora) **aftobus va tirkamali tranport** vositalarining harakatini taqiqlovchi yul belgilariga .

5. 70v 034 "Kitob Miraki " avtomobil yulining **2+500 pk, 11,va 14km** oraliqlarida og'ir turdagi yuk mashinalariga **3.12 (uqqa tushadigan og'irlik)** yul belgilariga Hokimlik qarorini chiqarishga amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Kitob tuman IIB JXX YHXB
boshlig'i mayor: **M.T.Sultonov**

Kitob tumani hokimining
2026-yil 1-avgustdagi
256-4-62-Q/26-son qaroriga
2-ilova

XUQUQIY XULOSA.

Kitob tumani xokimining Kitob tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga tegishli bo‘lgan umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanishiga qulaylik yaratish maqsadida ayrim yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida qaror loyihasi bo’yicha

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qaroriga muvofiq, Kitob tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga tegishli bo‘lgan umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanishiga qulaylik yaratish, avtomobillar qatnovini tartibga solish, texnika xavfsizligini ta’minlash, tirbandliklarning oldini olish hamda aholi va tadbirkorlarg a qulay sharoitlar yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asoslanib ishlab chiqilgan.

Tuman xokimining ushbu qaror loyixasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to‘liq javob beradi.

Kitob tumani xokimining Kitob tumani yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga tegishli bo‘lgan umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarida transport vositalarining harakatlanishiga qulaylik yaratish maqsadida ayrim yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida qaror loyihasi 2026-yil 8-iyul kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan (ID № 115353), muhokomada takliflar tushmadi va muxokoma muddati yakunlanganligi sababli tuman Adliya bo‘limiga xuquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi bosh yuriskonsulti
2- darajali Adliya maslahatchisi **Sh.B.Eshniyazov .**

Kitob tumani hokimining
2026-yil 1-avgustdagi
256-4-62-Q/26-son qaroriga
3-ilova

KITOB TUMANI HOKIMINING MA'NAVIYAT VA DAVLAT TILI MASALALARI BO'YICHA MASLAHATCHISINING LINGVISTIK EKSPERTIZA XULOSASI

2026-yil 27-iyul Kitob tumani

Kitob tumani yo'llardan foydalanish davlat muassasasiga tegishli bo'lgan umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarida yo'l belgilarini o'rnatish to'g'risidagi tuman hokimi qarori loyihasi davlat tili qoidalari va adabiy til me'yorlariga muvofiqligi yuzasidan lingvistik ekspertizadan o'tkazildi.

O'rganish natijasiga ko'ra:

1. Qaror loyihasining matni amaldagi "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga to'liq mos keladi.
2. Hujjatda imlo, grammatika va uslubiy xatolar mavjud emas, jumlalar mazmuni huquqiy va yuridik-texnik jihatdan aniq va tushunarli ifodalangan.
3. Loyihada qo'llanilgan atamalar va yo'l belgilarining nomlanishi amaldagi qonunchilikka hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori talablariga muvofiq keladi.

Xulosa:
Ushbu qaror loyihasi davlat tili va imlo qoidalariga to'liq javob berishi inobatga olingan holda, keyingi bosqichda qabul qilinishi hamda huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun adliya bo'limiga yuborilishiga **ijobiy xulosa beriladi**.

Hokim maslahatchisi:  **Y.To'rayev**

Kitob tumani hokimining
2026-yil 1-avgustdagi
256-4-62-Q/26-son qaroriga
4-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIAVTOMOBIL YO`LLARI DAVLAT QUMITASI
QASHQADARYO VILOYATI AVTOMOBIL YO`LLARI HUDUDIY BOSH BOSHQARMASI
KITOB TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI DAVLATMUASSASASI
O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Kitob shahar, M.Tursunzoda ko'chasi 100-uy.Mob.tel.91-961-84-66
Tel.: 54-25-402,MaxsusShH/R: 46001086010232704519311800l, INN: 206994614,OKONX:42110,Markaziy Bank Toshkent XKKM,
MFO: 00014, 23402000300100001010.INN: 201122919

"06" июнь 2026- yil №142 - sonli Kitob tumani

Китоб тумани хокими
Р.А.Ғофуровга

БИЛДИРИШ ХАТИ

Китоб туман йўллардан фойдаланиш корхонаси ДМ сизга шуни ёзиб маълум қиладики, ушбу корхона балансидаги умумфойдаланув автомобил йулларида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш, йул транспорт ҳодисаларини олдини олиш, йуловчи ва пиёдаларга қулайлик яратиш мақсадида айрим ҳудудларда тақиқловчи йул белгилари **3.27 (тўхташ ва тўхтаб туриш тақиқланади)** ва умумфойдаланув автомобил йўлларида оғир турдаги юк автомобилларининг ҳаракатланиши натижасидан йўл қопламасини яроқсиз ҳолатда келиб қолишини олдини олиш мақсадида **3.12 (ўққа тушадиган оғирлик)** йўл белгилари ўрнатилган бўлиб, лекин ушбу йўл белгиларининг Туман Ҳокимлиги қарори йуқ. Шундан келиб чиқиб пиёдалар ва автотранспорт воситалари билан боғлиқ йўл транспорт ҳодисаларини олдини олиш ва тирбандликни бартараф этиш, мақсадида қуйидаги йўл белгиларига Туман Ҳокимлик қарорини чиқаришга амалий ёрдам беришингизни сўраймиз.

Жумладан: 1. **Д- 160 " Китоб – Шаҳрисабз"** автомобил йулининг 2-3 км ораликлари **Қишлоқ хўжалиги биноси** рупарасига, **Туман маданият саройи** биноси олдига, **Самарқанд шахрига жўнаш** (эски автошоҳ бекат) автотураргохи олдига **3.27 (тухташ тақиқланади)** йул белгиларига

2. **70v 002 " Русқишлоқ – Макрид – Қопқонёғоч "** автомобил йулининг 0 -13 кмгача оғир турдаги юк машиналарига **3.12 (ўққа тушадиган оғирлик)** йул белгиларига

3. **70v 068 Китоб – Бештерак – Додиқ** автомобил йўлининг 12 км дан **70v 006 Бештерак – Макрид** автомобил йўлига бурилиш **(Qarshi CONX SEMENT)** бориш йўлига **3.12 (ўққа тушадиган оғирлик)** йул белгиларига

4. **70 v 033 " Варганза – Ҳазрати Башир "** автомобил йулининг **17 км** да **3.1** (кириш тақиқланади) **7.4.4 ва 7.4.2** (қушимча ахборот ишора йўл белгилари транспорт воситаси тури) **афтобус ва тиркамали транпорт** воситаларининг ҳаракатини тақиқловчи йул белгиларига .

5. **70v 034 “Китоб Мираки “** автомобил йулининг **2+500 пкдан, 11-14-25км** оралиқларида оғир турдаги юк машиналарига **3.12 (уққа тушадиган оғирлик)** йул белгиларига.

6. **70v 003 “Китоб - Алақўйлиқ “** автомобил йулининг **0 кмда** оғир турдаги юк машиналарига **3.12 (уққа тушадиган оғирлик)** йул белгиларига.

7. 70v 002 “ Русқишлоқ – Макрид – Қопқонёғоч “ автомобил йулининг 4 кмдан Чечак қишлоғи томон кириш (**70v 003 “Китоб - Алақўйлиқ “** автомобил йули томон) оғир турдаги юк машиналарига **3.12 (ўққа тушадиган оғирлик)** йул белгиларига

Китоб ТЙФДМ директори: **С. Шукуров**